

TTPU rektori “Muhandislik kasbiga jalb qilish va uning kelajakdagi istiqbollari” mavzusida ma’ruza qildi

Joriy yilning 29-oktabr kuni Iste’dodli yoshlarni qo’llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasida TTPU rektori “Muhandislik kasbiga jalb qilish va uning kelajakdagi istiqbollari” mavzusida ma’ruza qildi

Unda Iste’dodli yoshlarni qo’llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi raisi, akademik Salimov Oqil Umurzoqovich, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari Maxkamov Otabek Muxtarovich, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori To‘ychiyev Olimjon Alijonovich, shuningdek mahalliy OTMLar rahbarlari, professor-o‘qituvchilar, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikum direktorlari hamda ilmiy izlanuvchilar ishtirok etdi.









Tadbirni Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi raisi, akademik O.Salimov kirish so'zi bilan ochib berib, so'zni ma'ruzachilarga berdi. Vazir o'rinbosari O.Maxkamovning "Professional ta'lim tizimini modernizatsiya qilish" mavzusidagi ma'ruzasidan so'ng, TTPU rektori O.To'ychiyev bugunning muhandislari ilm-fan va ishlab chiqarish drayveriga aylanishi kerakligi, muhandislar eng ilg'or texnologiyalar yaratuvchilari ekanligi, ular innovatsiya, ijodkorlik va o'zgarish orqali aholi xavfsizligi, sog'ligi, farovonligini ta'minlashi, muhandislar – yangi texnologiyalarni yaratish, tasavvur qilish va amalga oshirish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar ekanligini haqida ma'ruza qildi.

Shuningdek, tadbir ishtirokchilariga mazkur yo'nalishda Universitetda amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan yutuqlar bo'yicha ma'lumotlar berilib, TTPU talabalarining ishlanmalari bilan tanishtirildi.